

## MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALAR NUTQINI O'STIRISHNING IZCHILLIGI

Nietullaeva Nazlimxan Shamshetovna

Qoraqalpog'iston Respublikasi

Qarao'zak tumani 10-sonli MTT metodisti

*Annotatsiya: mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda izchil olib boriladigan vazifalar, talablar yoritilib, nazariy va amaliy ma'lumotlar ochib berilgan.*

*Kalit so'zlar: kommunikativ, bilish, tartibga solish, faol, passiv, nutq, til.*

Maktabgacha ta'lim tashkilotida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'ilim va tarbiya berislida eng asosiy vazifalardan biri bolalarga ona tilini o'rgatish, nutqini rivojlantirish, nutqiy munosabatga, muomalaga o'rgatishdir. Tovush va so'zni tug'ri talaffuz etish bola shaxsining shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshidagi bolaning nutqi tashqi olam bilan bog'langan holda uchta vazifani bajaradi:

- 1) kommunikativ;
- 2) bilish;
- 3) tartibga solish.

Nutqning kommunikativ vazifasi bolada juda erta paydo bo'ladi. Bolaning ilk bor aytgan birinchi so'zi kommunikativ vazifani bajaradi. Ikki yoshdan boshlab bola o'z istak xohishini atrofdagi kishilarga tushunarli tarzda ifodalay oladi, o'ziga qarata aytilgan nutqni, so'zlar ma'nosini tushuna boshlaydi. Uch yoshdan keyin bola ichki nutqni egallaydi. Bu vaqtda nutq uning uchun muomala vositasi bo'libgina qolmay, balki boshqa vazifani - bilish vazifasini bajara boshlaydi; yangi so'zlar va so'z shakllarini o'zlashtira borib, tevarak - atrof haqidagi, predmet va hodisalar, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bolaga qaratilgan nutq uning xulq - atvorini tartibga solib turuvchi, qilinadigan ishlarni rejalshtirishga undovchi vositadir.

Bolalar tarbiyachining rahbarligi ostida turli mashg'ulotlarda narsalarning har xil xususiyatlarini, qattiq-yumshoqligini, rangini, shaklini qayta-qayta idrok qilar ekanlar, ularning ongida narsalarning turli xususiyatlariga doir etalonlar (andaza, obrazlar) yuzaga keladi. Keyinchalik bolalar narsalarning xususiyatlarini, belgilarini idrok qilganlarida o'z tasavvurlaridagi etalonlarga taqqoslab, solishtirib ko'radilar. Shuning uchun bog'chada bolalarga sensor tarbiya berish orqali ularda etalon tasavvurlarni hosil

qilish katta ahamiyatga egadir. Sezgi a'zolari hissiy yo'l bilan egallanadi. Ana shuning uchun sezgi a'zolarini yoshlik davridan boshlab o'tkirlashtirish, ya'ni sensor tarbiya nihoyatda zarurdir. Odamlargagina xos bo'lgan musiqa tovushlariga nisbatan sezgirlik, tovushlarning nozik tomonlarini anglay bilish sezgirligi, biron narsaning tekkanini sez bilish kabi nihoyatda muhim xususiyatlar bog'chada amalga oshiriladigan sensor tarbiya orqali rivojlantiriladi. Bog'cha yoshidagi bolalar narsalarni o'z qo'llari bilan bevosita ushlamasalar ham, ko'rish va eshitish bilan qanoatlanadigan bo'ladilar. Bolaning ko'rish sezgisi bog'cha yoshigacha bo'lgan davrda juda tez takomillashadi. Shuning uchun bolaning ko'zi katta yoshdagi odamlar ko'ziga nisbatan uzoqni ko'ra oladi. Agarda bolaning ko'zi biron kasallikka uchramay, normal va sog'lom taraqqiy etsa, ko'rish o'tkirligi katta yoshdagi odamlarnikiga nisbatan ikki-uch barobar ortiq bo'ladi.

Bog'cha yoshidagi bolalar sezgisini o'stirishda tarbiyachining roli juda kattadir. Tarbiyachi turli qiziqarli mashg'ulotlar orqali bolalar sezgi a'zolarining sezgirlik darajasini o'stirishga yordam berishi kerak. Bunda bolalar sezgi a'zolarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni aniq va mazmunli o'yinlar bilan bog'lab o'tkazish yaxshi natija beradi. Masalan, bolalarda uzoqdagi narsalarning farqini ajrata olish sezgirligini takomillashtirish uchun rangli va har xil kattalikdagi qutichalar yoki kubiklarni ma'lum uzoqlikka qo'yib, farqini ajrata olish o'yinini o'tkazish mumkin. Bunda bolalarning ko'rish sezgirliklari darajasiga qarab, kubiklar qo'yilgan masofalarni ayrim bolalarga nisbatan uzoqlashtirish va boshqa bolalarga nisbatan esa yaqinlashtirish mumkin. Har bir tarbiyachi o'z qo'l ostidagi bolalar sezgi a'zolarining holatini, sezgirlik darajasini yaxshi bilishi kerak. Turli mashg'ulotlarni tashkil qilishda buning ahamiyati juda kattadir.

Maktab yoshiga yetgan bolalarning nutq va tafakkurining rivojlanganlik darajasiga qo'yiladigan talablar:

- Nutqining rivojlanganligi va so'z boyligiga oid;
- Tovush, so'zlarni aniq va to'g'ri talaffuz etish;
- 3000 dan ortiq so'zni tushunish va bilish;
- Rasmga qarab gap tuzish;
- Ertak va hikoyani tinglash, mazmunini tushunish;
- Eshitgan kichik ertak va hikoyani qayta so'zlab berish;
- Ifodali nutqqa ega bo'lish;
- Tevarak-atrof, tabiat manzarasi haqida qisqacha so'zlab berish;
- Turli mavzudagi, kichik hajmdagi 6 ta she'rni yoddan aytish;
- Ota-onasiga, tarbiyachi tavsiyasi bilan hayotiy mavzular bo'yicha qisqacha hikoya tuzish;

- Kattalar va o‘rtoqlari bilan suhbatda faol ishtirok etish; Kattalar va o‘rtoqlari bilan gaplashish madaniyatiga ega bo‘lish.

Kelajagimiz ertasi, bo‘lgan bolalarni juda kichkinaligidaan boshlab go‘zal ona tilimizning ifoda imkoniyatlaridan bahramand qilib borish, ularni to‘g‘ri talaffuz me’yorlari bilan tanishtirish, so‘zlarni tanlab, maqsadga muvofiq ishlata olish, o‘z fikrini sodda, ixcham, aniq qilib tasvirlashga o‘rgatish, tilning tozaligiga e’tibor berishni o‘rgatib borish zarur. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari bolalar nutqini o‘stirishda katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, bu faoliyat maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun tavsiya qilingan ta’lim markazlarida dastur asosida olib boriladi.

## **ADABIYOTLAR**

1. Гербова В . Планирование работы по развитию речи и ознакомление с художественной литературой // Дошкольное воспитание, 1999,
2. Shodiyeva Q. «Maktabgacha yoshdagi bolalarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish». - Т .: «O‘qituvchi», 1990